

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK,
CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK
VA TARJIMASHUNOSLIK

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

COMPARATIVE LITERARY STADIES,
CONTRASTIVE LINGUISTICS AND
TRANSLATION STUDIES

2022 Vol. 3 (1)

www.tsuull.uz
www.uzlctscls.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosarlari: Uzoq Jo'raqulov
Nozliya Normurodova
Ziyoda Teshaboyeva

Mas'ul kotib: Mahmadiyor Asadov

Tahrir hay'ati

Bahodir Xoliqov, Komiljon Hamroyev, Odiljon Safarov, Nargiz Rashidova, Murtazo Saydumarov, Aidaxon Bumatova, Ulug'bek Yo'ldosh Nurmurod Chiniqulov, Nigora Sulaymonova, Oydin Tuychiyeva, Ra'no Xudjayeva, Zulfiya To'xtaxodjayeva, Ma'suma Obidjonova.

Jurnal haqida ma'lumot

"Qiyosiy adabiyotshunoslik chog'ishtirma tilshunoslik tarjimashunoslik" seriyasi - qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarini qamrab olgan O'zbekiston: tilshunoslik madaniyat akademik jurnalining ilovasi hisoblanadi.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikka oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaralarni undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda ilmiy maqolalar, kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotshunoslik sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103

Email: uzlctscls.@navoiy-uni.uz

Website: www.uzlctscls.tsuull.uz

tsiteti Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy editor-in chief: Uzok Djurakulov
Nozlya Normurodova
Ziyoda Teshaboyeva

Executive secretary: Mahmadiyor Asadov

Editorial Board

gargiza Bahodir Kholikov, Komiljon Hamroev, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova,
shev Murtazo Saydumarov, Aidakhon Bumatova, Ulugbek Yuldoshev, Nurmurod
noxor Chinikulov, Nigora Sulaymonova, Oydin Tuychieva, Ra'nokhon Xudjaeva,
Zulfiya Tukhtaxadjaeva, ma'suma Obidjanova.

About the Journal

va *Uzbekistan: Language and Culture. Comparative Literary Studies,*
irma *Contrastive linguistics and Translation Studies* series is an academic journal
til va that publishes works in the field of comparative literary, contrastive
linguistics and translation studies.

The journal is published twice a year.

moslik The purpose of the journal is to publish the results of the latest research
araga that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which
olgan stimulates debate on topical issues in these areas.

arda The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic
languages are also welcome.

otlar In addition to research articles, the journal publishes thesis and literary
e'lon work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.trans.compliterary.tsuull.uz

MUNDARIJA

JAHON ADABIYOTI VA TIPOLOGIK TALQIN

Komiljon Hamroyev

“Saddi Iskandariy” va “Hamlet” asarlarida “bilib qolish” tipologiyasi.....

Mahmadiyor Asadov

“Kimsasiz odam” botin olamining badiiy-psixologik talqini

Nilufar Jumayeva

Uilyam Folkner asarlarida simbolizm belgilari

Yulduz Ziyayeva

“Oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazi takomilida jahon romanchiligining ta’siri.....

Azamat Xayrullayev

Sharq hikoyatlarida “tarbiya motivi”

Dilnavoz Najimova

Jahon adabiyotida antalogiya tuzish tamoyillari

SHARQ VA G’ARB LIRIKASI MUAMMOLARI

Sarvinoz Sotiboldiyeva

Foniyning muxtare’ g’azallari.....

Oydin Tuychiyeva

Moga Rahmoniy tazkirasida ijtimoiy-tarixiy muhitning poetik tasviri

TARJIMA VA TARJIMASHUNOSLIK

Kosimboy Ma’murov, Nargiza Tilakova

Navoiy ijodiyoti: g’azal tarjimasining tartibi-qoidalarini

Nargiza Rashidova

O’zbek va turk tillarida diniy mansab va unvon nomlari semantikasi.....

Aidaxon Bumatova

Poetik tarjima transformatsiyasi.....

Odiljon Safarov

Qiyosiy tilshunoslik muammolari.....

Ra’noxon Xudjayeva

Badiiy asarlarda omonimlar berilishining tarjima muammolari.....

QUTLOVLAR

Uzoq Jo’raqulov

Global adabiyot talqinchisi.....

XOTIRALAR

Nargiza Rashidova

Ilmga baxshida umr

CONTENT

TYPOLOGICAL ANALYSES AND THE WORLD LITERATURE

Komiljon Hamroev	
Typology of "realizing" in "Saddi Iskandariy" and "Hamlet"	6
Mahmadiyor Asadov	
The artistic and psychological interpretation of the inner world of "desolate man"	14
Nilufar Jumaeva	
Signs of Symbolism in William Faulkner's works	21
Yulduz Ziyaeva	
The influence of world novels on the development of the image of "lady-love suitor, rival"	29
Azamat Khayrullaev	
"Motif of education" in East stories	37
Dilnavoz Najimova	
Principles of Compiling an anthology in World Literature	41

THE ISSUES OF POETRY OF WESTERN AND EASTERN COUNTRIES

Sarvinoz Sotiboldieva	
Foni's mukhtarah gazelles	47
Oydin Tuychieva	
Poetic description of the socio-historical environment in Moga Rahmani's Tazkiras... ..	61

TRANSLATION AND TRANSLATOLOGY

Kosimboy Ma'murov, Nargiza Tilakova	
Navoi's creativity: procedure of ghazal Translation	72
Nargiza Rashidova	
The semantics of religions ranks and titles in Uzbek and Turkish languages	86
Aidakhon Bumatova	
Transformations in the poetic Translation	92
Odiljon Safarov	
The problems of contrastive linguistics	100
Ra'nokhon Khudjaeva	
Translation problems of giving homonyms in literary works	113

GRATITUDES

Uzoq Djuraqulov	
Interpreter of global literature	121

MEMORIES

Nargiza Rashidova	
Life, devoted to the science	125

Global adabiyot talqinchisi

Davrimizning zabardast olimi, munaqqid, nazariyotchi, Navoiyning sodiq muhibi va yangi tipdagi tadqiqotchisi Suvon Meli Samarqandning Kattaqo'rg'onida, oddiy mehnatkash dehqon xonadonida tug'ilgan. Uning otasi qat'iyatli, halol, odam edi. Urush ko'rgan, qirg'inbarot ichidan omon qaytgan. Suvon Melining aytishicha: "Jang maydonida "Ixlos" surasini tilimdan qo'ymadim, Olloh qo'lladi, ko'p o'limlardan qoldim, umrimning qolgani menga Egamning marhamati", der ekan otaxon. Bu gaplarni aytishimga sabab shuki, Ollohning bunday marhamatidan bir shingili Suvon Meliga ham tegishli. Olloh urushdan omon qaytgan Meli Husanovga, boshqa bolalari qatori, 1951-yili yana bir o'g'il bergan. Unga Suvon deb ism qo'yishgan.

Bugun shu voqeaga 70 yil to'ldi. Yetmish yil avval ota xonadonini quvonch-u umidga to'ldirgan bolakay Suvonqul bugun o'zbek deb atalmish millat xonadonining faxriga aylandi. Haqiqatan ham, bugun milliy madaniyatimiz, ma'naviyatimiz va adabiyotimiz maydonini bu nomsiz tasavvur qilish mumkin emas.

Ammo Kattaqo'rg'onida atak-chechak qilib, maktab ko'rgan bu bolakay ertakdagidek bir aylanib mutafakkir Suvon Meliga aylanib qolgan emas. Bugunga qadar uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi. O'tgan asrning 70-yillarida hozirgi O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetida o'qidi. Ammo talabalik davrining asosiy qismi o'zbek filologiyasi fakulteti auditoriyalarida o'tdi. U filolog ustozlar ma'ruzalarini tinglash, ular bilan suhbatlashishni yaxshi ko'rardi. O'zini kelajakda jurnalistdan ko'ra, ko'proq filolog sifatida tassavur etardi. Shu tabiiy istak uni ijtimoiy kasb jurnalistlikka emas, botin ilmi - insonshunoslikka olib keldi. Ustoz tanlashda ham Suvon Meli plankani ancha baland qo'ydi. O'zbek filologiyasi fakultetida adabiy to'garak ochib, Abdulla Oripov, Erkin Vohidovlarni tarbiyalagan Matyoqub Qo'shjonov etagini tutdi. Chunki Matyoqub Qo'shjonov o'z davrining asl adabiyotga yaqin, ilmiy demokratiya va akademizmga moyil yirik olimi edi. Suvon Melining 70 yillik shukrona kuni Navoiy universitetining o'zbek filologiyasi fakultetida o'tkazilishi, ayni jihatdan, ilohiy bitikka monand. Qonuniy asos va ramziy ma'noga ega.

Suvon Meli 1975-yilda O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida laborant lavozimida ish boshlagan. 46 yildan beri shu institutda ishlab kelmoqda. Bu, menimcha, ko'pchiligimizga ibrat bo'ladigan fazilat. Zotan, donishmand o'zbekda bir hikmat bor: "Daraxt bir joyda ko'karadi".

To'g'ri, olim muayyan yillar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent davlat agrar universitetlarida adabiyot ilmidan dars ham bergan. Biroq shunda ham asosiy ish joyi Adabiyot ilmiy-tekshirish instituti bo'lgan.

Olimning katta-kichik barcha tadqiqotlari shu institut muhitida tug'ilgan. Izzat Sulton, Matyoqub Qo'shjonov, Homil Yoqubov, Abduqodir Hayitmetov, Salohiddin Mamajonov, Naim Karimov, Yoqubjon Is'hoqov, Parizod Mirzaahmedova, Bahodir Sarimsoqov, Ninel Vladimirova kabi yetuk olimlar bilan hamkorlik, ilmiy suhbatlar olim ilmiy-nazariy qarashlarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Nemis mutafakkiri Iogann Volfgang Gyote aytgan edi: "O'ziga xos ijodkor bo'lish uchun ikki narsa lozim: buyuk meros va buyuk aql". Suvon Meli uchun buyuk meros vazifasini milliy adabiyotimiz tarixi, Yusuf xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Navoiy, Mashrab, Boburlar ijodi, shuningdek, Platon, Aristotel, Platin, Gyote, Gegel singari G'arb mutafakkirlari asarlari bajardi. Buyuk aql esa, unga ota-bobolaridan, Samarqandning xokisor va serhosil tuprog'idan meros bo'lib o'tdi.

Suvon Meli, garchi 40-50 yildan beri ilm tuprog'ini yalab kelayotgan bo'lsa ham, bugunga qadar bor-yo'g'i uchta kitob nashr ettirdi. 2000-yili ustoz akademik Matyoqub Qo'shjonov bilan hammualliflikda chop qilingan "Abdulla Oripov" nomli kitob olimning to'plam holidagi birinchi asari edi. 2020-yilda, ya'ni oradan 20 yil o'tib, Suvon Melining biryo'la ikki kitobi bosilib chiqdi: "So'zu so'z", "Global talqin poetikasi".

Yuzaki qarashda, ilm yo'llarida yarim asrni qaritgan Suvon Meli, hajman juda kam yozgandek tuyuladi. Illo, gap hajmdamikan? Ruslardan chiqqan buyuk mutafakkir Mixail Mixaylovich Baxtin bilan zamondosh sovet olimlari o'z davrida jild-jild kitoblar chop ettirishgan. Ular mashhurlik cho'qqisiga chiqqan zamonlarda Baxtinni hatto ko'pchilik tanimagan. Bugun Baxtin asarlari, ilmiy-nazariy qarashlari Sharq-u G'arbga birdek yoyilgan. Ko'pjildliklar mualliflarini esa, birov bilmaydi, eslamaydi ham.

Suvon Meli o'zbekning Baxtini bo'lishga da'vo qilmaydi. Uning ijtimoiyot, falsafa, psixologiya, estetika va adabiyotshunoslikni sintezlagan, ayni paytda milliy ma'rifatdan jon olgan o'ziga xos yo'li bor. Ha, Suvon Meli oz yozadi. Oz yozadi-yu, ma'noli, yangi gaplarni yozadi. Shu bois u yozgan kichik bir spravkaning ham o'z o'quvchisi bor. Zotan, o'qilgan asar yashaydi, o'qilmagan asar esa, u nechchi jild bo'lishidan qat'i nazar, o'likdir.

Suvon Melining ilk maqolalariyoq, oliftanamo aytganda, sensatsiya bo'lgan. Olim ijodiga xos bunday sensatsion jarayon hamon to'xtagani yo'q. Bu xulosamiz "Hazillashmang dahol bilan: kim haq, Fitrat yoki Navoiy?".

“O‘g‘rigina bolaning izzati yohud mehr sehri”, “Komik katarsis”, “Asl adabiyot ezgulikka xizmat”, “Shekspirning ruhdoshi yohud ko‘ngil so‘nggi bekat”, “Lirik fojeli”, “Nayning nolasi – kimning nolasi?”, “Kaufman nega kuldi?”, “Mangu mung. Qadim turkiylarning qabrison she‘riyati” kabi o‘nlab maqolalarga tegishli. Qolaversa, sanalgan ishlar olimning adabiy jarayonga oid ishlaridan bir shingil, xolos.

Suvon Melining asl qiyofasi uning nazariy tadqiqotlarida ko‘rinadi. Badiiy adabiyotga xos liriklik, epiklik, tragiklik tushunchalari shunchaki nazariy istiloh yoki ilmiy formallik emas. Bu masala haqida so‘z yuritish uchun intellektual salohiyat bilan birga, intuitiv bilim ham kerak. Chunki mazkur tushunchalar badiiy asar botinida yashaydi. Hatto dunyo adabiyotshunosligida ham ayni hodisani badiiy kontekstda munosib kashf etgan olim barmoq bilan sanarli. Suvon Meli tadqiqotlarida nainki tragizm, balki tragizmining dramatiklik, komiklik, epiklik, liriklik bilan birikib, o‘ta nozik badiiy voqelikni tashkil etishi kashf qilinadi. Mung ichidagi kulgi, kulgi tarkibidagi fojia va liriklik mohir g‘avvos kabi so‘z sathiga olib chiqiladi. Bunday nazariy o‘ziga xoslik faqat maqolalarida emas, olimning “She‘riy kontekstda so‘zning badiiy vazifasi” deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasida ham yetakchi ilmiy knsepsiya bo‘lib kelgan.

Mustaqillik davriga kelib, o‘zbek navoiyshunosligi tabiiy ravishda ikki yo‘nalishga ajraldi: an‘anaviy navoiyshunoslik, yangi navoiyshunoslik. Suvon Meli o‘zbek yangi navoiyshunosligida ham o‘z ilmiy imkoniyatlarini namoyon etyapti. Bu jihat uning “Navoiy va Platon”, “Dante va Navoiy”, “Farhod va Faust” singari qiyosiy adabiyotshunoslik, “Kongeniallik” singari tarjimashunoslik, “Xamsa” superjanr sifatida”, “Xamsa”da muallif obrazi kategoriyasi”, “Bir baytning qiyosiy tahlili” kabi nazariy ishlarida yaqqol ko‘rinadi. Eng muhimi, Suvon Melining Navoiyga doir tadqiqotlari yangi, salmoqli, o‘ziga xos xulosalarga boyligi bilan navoiyshunoslik sarhadlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Suvon Melining “Global talqin poetikasi” (Toshkent: Fan, 2020) nomli monografiyasi nainki milliy adabiyotshunoslik, hatto jahon adabiyotshunosligi uchun ham yangilik bo‘ldi. Zotan, adabiyotshunoslikda talqinning o‘nlab shakllari bor. Ammo global badiiy talqin muammosi hali hech bir adabiyotshunos tomonidan qo‘yilmagan. Biz globallashuv, global madaniyat, global iqtisod, global siyosat, global ekologik muhit kabi masalalarni ozmuncha bilamiz. Illo, global badiiyat yoki global ilmiy-badiiy talqin va uning poetikasi haqida tasavvurga egamizmi? Bu monogarfiya ong-u tafakkurimizdagi mana shu kemtikni to‘ldirishi jihatidan muhim. Kitob

muallifining tushuntirishiga ko'ra, buyuk mutafakkir tomonidan ijod qilingan asar global – umumsayyoraviy muammolar doirasida ishlaydi. Bunday asarlarni tushunish, tushuntirish, ilmiy tadqiq etish uchun esa global darajadagi ilmiy talqin zarur.

Suvon Meli 70 yoshida ham faol, uyg'oq. Milliy adabiyotimiz sofliги, kelajagi uchun jon kuydirib yashamoqda. O'zligimizga, ma'naviyatimizga nomunosib asarlar paydo bo'lsa, birinchi bo'lib tanqid tig'idan o'tkazadiki, bunga misollar ko'p.

U milliy adabiyotimiz rivoji yosh avlodga bog'liqligi haqida ko'p gapirardi. Yosh tanqidchilar avlodini shakllantirishni orzu qilardi. Nihoyat, bu yil, universitetimiz rektori Shuhrat Samariddinovichning qo'llovi bilan "Jahon adabiyoti va universal adabiyotshunoslik" kafedrası tarkibida "Yosh munaqqid klubi" ish boshladi. 200 dan ortiq a'zosi bo'lgan klub faol ishlamoqda. Suvon Meli universitetimiz talabalari orasidan iqtidorlilarini ajratib olib, kelajak munaqqidlarini tayyorlamoqda. Bu klubning shiori: "Uchinchi Renessansning adabiy-estetik poydevorini quramiz" degan samimiy so'zlardan iborat.

Xullas, Suvon Meli kabi asl ziyolilar Yaratganning xalqimiz va davlatimizga bergan yuksak ne'mati. Bunday ne'matni qadrlash esa barchamiz uchun farzdir.

Suvon aka, tavallud kuningiz qutlug' bo'lsin! Kamida yana 70 yil o'zbekning ma'naviy olami, adabiyot maydonida javlon urib yurish nasib etsin!

Uzoq JO'RAQULOV,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek
tili va adabiyoti universiteti professori,
filologiya fanlari doktori